

AZIZLAR! NARGIZA ERKABOYEVADAN YANGILIK!!!!

Ustoz Nargiza Erkaboyeva YuTube kanalida **majburiy fanlar** bosqichidagi **abituriyentlar** uchun **mutlaqo bepul videodarslar** kanali tashkil etdilar. Endi siz **hech qanday kurslarga, repetitorga bormasdan** ona tilini ustoz **Nargiza Erkaboyeva** bilan **mutlaqo bepul** o`rganish imkoniyatiga egasiz. Videodarslar tushunarli va oson o`tilgan. Batafsil ma`lumotni **@nargizaerkaboyeva** rasmiy kanalidan olishingiz mumkin.

Telegramdagi kanal: **@nargizaerkaboyeva**

YuTube dagi kanal: **Erkaboyeva akademiyasi**

Sayt: **erkaboyeva.uz**

1. "Avesto" da devlar, zulmat kuchlariga qarshi qonunlar majmuasi qanday atalgan?

- A) visparad
- B) gohlar
- C) yashtlar
- D) vendidod

2. "Agar mening ustimdan qo`rqqoq deb yana kulsangiz, endi ajdarni tutib kelaman". Ushbu so`zlar qaysi asar qahramoni tilidan aytilgan?

- A) "Me`mor", Zavrak
- B) "Kichkina shahzoda", Kichkina shahzoda
- C) "Me`mor", G`avvos Muhammad
- D) "Hellados", Jamol"

3. Boburnoma"da Temurbekning Hindiston urushi tasviri chizilgan ko`shk nomi qanday ataladi?

- A) Bog`i Bo`ldu
- B) Bo`g`i Shamol
- C) Bog`i Dilkusho
- D) Bo`g`i Bihist

"Qissasi Rabg`uziy"dagi qaysi hikoyatda quyidagi parcha uchraydi?

4. "Qushlar go`shtni olurmiz, deb uchgan sari go`sht ham yuqori borur erdi. Yana bir kecha-kunduz uchdi."

- A) "Namrud hikoyati"
- B) "Sulaymon va chumoli hikoyati"
- C) "Ilon va qarlug`och hikoyati"

D) "Uzum hikoyati"

5. Ochiq chehrangni to ko'rdi dema, ey gul ochilmishdir,
Xijolat g'oyatidin aylamish kulgu ayon g'uncha. Munis qalamiga mansub ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atni toping.

- A) tarse'
- B) husni ta'lil
- C) ishtiyoq
- D) iyhom

6. Ohkim, bo'ldi subhi nashotim shomi g'am,
Chehra pinhon etti ul Xurshidi tobon oqibat. Ushbu baytda qo'llangan she'riy san'atni toping.

- A) tazod
- B) tarse'
- C) takrir
- D) ruju

7. "Alpomish" dostonida qaysi qahramon o'zining quyonchiq kasali borligini bahona qilib, vaziyatdan chiqib ketgan edi?

- A) Ko'kaldosh
- B) Ko'kaman
- C) Qorajon
- D) Hakimbek

8. Tog'ay Murod qaysi asari uchun Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan?

- A) "Qo'shiq"
- B) "Oydinda yurgan odamlar"
- C) "Otamdan qolgan dalalar"
- D) "Yulduzlar mangu yonadi"

9. Usmon Nosir ijodiga mansub dramatik asarlar berilgan javobni toping.

- A) "Dushman", "Atlas", "So'nggi kun", "Traktorobod"
- B) "Dushman", "Zafar", "Norbo'ta", "Naxshon"
- C) "Dushman", "Atlas", "So'nggi kun", "Zafar"
- D) "Dushman", "Atlas", "So'nggi kun", "Naxshon"

10. Alisher Navoiy Najmiddin Kubro haqida "Nasoyim ul-muhabbat" asarida shunday yozgan edi: "Alarg'a . . .

ondin laqab bo'ldiki, har kim bila munozara va mubohasa qilsalar erish, ul kishi g'olib bo'lurlar erish". Nuqtalar o'rniga ul buyuk zotning mos nom(laqab)larini qo'ying.

- A) Abuljannob

- B) Tummat ul-kubro
- C) Kubro
- D) Valiytarosh

11. Navoiy "Xamsa" asari qahramonlaridan qaysi birini "Jamolida vafo tug'rosi paydo" deb ta'riflaydi?

- A) Shirinni
- B) Laylini
- C) Qaysni
- D) Farhodni

12. Nodar Dumbadzening dastlabki yirik asarlarini toping.

- A) "Qishloq bolalari", "Abadiyat qonuni"
- B) "Men buvim, Iliko va Illarion", "Quyosh kechasi"
- C) "Kukaracha", "Qishloq bolalari"
- D) "Men, buvim, Iliko va Illarion", "Quyoshni ko'ryapman"

13. "Esingizdami, oyi, ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo'lib uxlab qolardim. o'sha

beshtikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman". Ushbu parcha O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidagi qaysi hikoyadan olingan?

- A) "Gilam paypoq"
- B) "Qarz"
- C) "Iltijo"
- D) "Haqqush"

14. Quyida berilgan qaysi asar poema janrida yozilgan?

1) Musa Jalil "Xat tashuvchi"; 2) G'afur G'ulom "To'y"; 3) G'afur G'ulom "Ko'kan"; 4) Turob To'la "Samarqand afsonasi"; 5) Zulfiya "Quyoshli qalam"; 6) Maqsud Shayxzoda "Loyiq soqchi"

- A) 3, 4, 5, 6
- B) 2, 3, 4, 6
- C) 1, 2, 3, 5
- D) 1, 3, 5

15. Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit-turk» asarida turklar asli nechta qabila ekanligi aytilgan?

- A) 20 ta
- B) 30 ta
- C) 24 ta
- D) 25 ta

16. Quyidagi qahramonlardan qaysi biri Ch.Aytmatovning "Jamila" qissasida ishtirok etmaydi?

- A) Doniyor
- B) Ibrohim
- C) Usmon
- D) O'rozmat

17. "Rustamxon" dostonidan olingan quyidagi parcha kimningtilidan aytilgan?

Maydon bo'lsa bedov otlar topilar,
Chopib kelsa banot jullar yopilar,
Men ham bildim, yo'qchi bo'lib kelibsan,
G'am yema begijon, yo'g'ing topilar.

- A) qalandarlar
- B) Rustamxon
- C) Huroyim
- D) Oftoboy

18. Navoiy "Yo'q" radifli g'azalida jonsiz jismni nimaga o'xshatgan?

- A) sarchashmasi yo'q zulmatga
- B) sultonsiz mamlakatga
- C) oysiz qarongi kechaga
- D) guli rayhonsiz qora tuproqqa

19. Rumiy "Masnaviy" asaridagi murakkab falsafiy muhokama va mushohadalarni qaysi asarida ravshan va sodda shaklda tushuntirib bergan?

- A) "O'n usul"
- B) "Ulug' devon"
- C) "Ishonarli to'plam"
- D) "Ichingdagi ichingdadur"

20. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida "Yangi masjid va maktab" sarlavhali xabar bosilgan. Ushbu asar muallifi kim edi?

- A) Fitrat
- B) Abdulla Qodiriy
- C) Hamza
- D) Cho'lpon

21. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanida Qalandar Qarnoqiy "u qari tulki bu sir-asrorlarni hazratga

yetkazganlar" deganda xazina haqida sirlarni oshkora qilgan qaysi qahramon haqida so'zlagan?

- A) Ibrohim Po'lat

- B) Xoja Salohiddin zargar
- C) Sulton Jondor
- D) Temur Samarqandiy

22. Beg ati bilig birla bag'lig' turur,
Bilig "lam"(i) ketsa, beg ati qalur. Ushbu misralar qaysi ijodkor qalamiga mansub, qanday she'riy san'at qo'llangan?

- A) Yusuf Xos Hojib, tashbeh
- B) Ahmad Yugnakiy, harfiy san'at
- C) Yusuf Xos Hojib, harfiy san'at
- D) Ahmad Yugnakiy, tashbeh

23. Shahlar darveshi-yu, darveshlar shahiki bor,
Shahlig' suvrat anga, darveshlik siyrat anga. Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu misralarda qanday she'riy san'atlar qo'llangan?

- A) tarse', tazod
- B) tashbeh, tashxis
- C) tardi aks, tazod
- D) tajnis, tarse'

24. Qadimgi turkiy tilda "To'nyuquq" so'zi qanday ma'noni anglatgan?

- A) to'ng'ich javhar
- B) to'ng'ich shahzoda
- C) ulug' sarkarda
- D) ulug' xoqon

25. Sanodin o'zga nav atlas to'quyin,
Qish o'rtada bahoriyot o'quyin.

Kim ujmohtur sening bazming binosi,
Hamisha yoz erur, jannat havosi.

Ushbu misralarda qaysi ijodkor qaysi hukmdorga atab mubolag'aviy tasvirlar yaratdi?

- A) Xorazmiy Muhammad Xo'jabekka
- B) Xo'jandiy Mahmudxonga
- C) Sayfi Saroyi Batxasbekka
- D) Rabg'uziy Nosiriddin To'qbug'aga

26. Nodiraning qaysi g'azalida turkiy so'z radifga olinib, qofiyadagi so'zlarning barchasi o'zbekcha egalik

qo'shimchalari bilan kelgan forscha-tojikcha so'zlardan tashkil topgan?

- A) "Doda keldim. . ."
- B) "Vasl uyin obod qildim. . ."

C) "Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin. . ."

D) "Kel, dahrni imtihon etib ket. . ."

27. "Chingiz Aytmatovning qissa janrida yozilgan asarlarini toping.

1) "Qiyomat"; 2) "Alvido, Gulsari"; 3) "Yuzma-yuz"; 4) "Tog'lar qulaganda"; 5) "Birinchi muallim"

A) 1, 2, 4

B) 1, 3, 5

C) 2, 3, 5

D) 2, 3, 4, 5

28. "Farhod va Shirin" dostonida Yunonistondagi to'rtinchi manzil qaysi javobda berilgan?

A) tilsim yashiringan manzil

B) Suqrot yashaydigan g'or

C) ajdaho yashaydigan g'or

D) Ahraman dev yashaydigan manzil

29. Asqad Muxtorning "Po'lat quyuvchi" asari qaysi janrda yozilgan?

A) ocherk

B) poema

C) ballada

D) ertak doston

30. Usmon Nosir dramalarini toping.

1) "Norbo'ta"; 2) "Naxshon"; 3) "Safarbar satrlar"; 4) "Traktorobod"; 5) "Yurak"; 6) "Zafar";

7) "Mehrim";

8) "Dushman"

A) 3, 5, 6, 8

B) 6, 8

C) 1, 2

D) 3, 4, 5, 7

Ustoz: Nargiza Erkaboyeva

Kanal: @nargizaerkaboyeva